



Journal of
NATURAL SCIENCE

<http://natscience.jspi.uz>

№5/3(2021)

biology chemistry geography



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TABIIY FANLAR FAKULTETI**

dotsenti, kimyo fanlari nomzodi

DAMINOV G‘ULOM NAZIRQULOVICH

tavalludining 60 yilligiga bag‘ishlangan

onlayn konferensiya materiallari



Jizzax-2021

<u>ТАХРИР ҲАЙЪАТИ</u>	<u>ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ</u>
<p align="center">Бош муҳаррир – У.О.Худанов т.ф.н., доц.</p> <p align="center">Бош муҳаррир ёрдамчиси-Д.К.Мурадова, PhD, доц.</p> <p align="center">Масъул котиб- Д.К.Мурадова</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Худанов У.О. – ЖДПИ Табиий фанлар факултети декани, т.ф.н., доц. 2. Шылова О.А.-д.х.н., профессор Института химии силикатов им. И.В. Гребенщикова Российской академии наук (ИХС РАН) 3. Маркевич М.И.-ф.ф.д. проф Беларусия ФА 4. Elbert de Josselin de Jong- профессор, Niderlandiya 5. Кодиров Т- ТТЕСИ к.ф.д, профессор 6. Абдурахмонов Э – СамДУ к.ф.д., профессор 7. Сманова З.А,-ЎзМУ к.ф.д., профессор 8. Султонов М-ЖДПИ к.ф.д,доц 9. Яхшиева З- ЖДПИ к.ф.д, проф.в.б. 10. Рахмонкулов У- ЖДПИ б.ф.д., проф. 11. Мавлонов Х- ЖДПИ б.ф.д.,проф 12. Муродов К-СамДУ к.ф.н., доц. 13. Абдурахмонов Ғ- ЎзМУ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц 14. Хакимов К – ЖДПИ г.ф.н., доц. 15. Азимова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология бўйича) (PhD), доц 16. Юнусова Зебо – ЖДПИ к.ф.н., доц. 17. Гудалов М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (география фанлари бўйича) (PhD) 18. Мухаммедов О- ЖДПИ г.ф.н., доц 19. Хамраева Н- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (биология фанлари бўйича) (PhD) 20. Рашидова К- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё бўйича) (PhD), доц 21. Мурадова Д- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD), доц 22. Инатова М- ЖДПИ фалсафа фанлари доктори (кимё фанлари бўйича) (PhD)
<p>Муассис-Жиззах давлат педагогика институти</p>	
<p>Журнал 4 марта чиқарилади (хар чоракда)</p>	
<p>Журналда чоп этилган маълумотлар аниқлиги ва тўғрилиги учун муаллифлар масъул</p>	
<p>Журналдан кўчириб босилганда манбаа аниқ кўрсатилиши шарт</p>	

Жиззах давлат педагогика институти Табиий фанлар факултети

Табиий фанлар-Journal of Natural Science-электрон журнали

[/http://www.natscience.jspi.uz](http://www.natscience.jspi.uz)

**NASL – REPRODUKTOR XO‘JALIKLARIDA NASLCHILIK ISHINI
TASHKIL QILISH**

Sindorov Abdumo‘min O‘rolbek o‘gli-o‘qituvchi

Ubaydullayev Mirjalol Boybo‘ri o‘g‘li-talaba

Azimov Nodir Qodir o‘g‘li-talaba

Jizzax davlat pedagogika instituti

Annotatsiya:Nasl – reproduktor xo‘jaliklarining asosiy vazifasi o‘z nasl xususiyatlarini nasldan – naslga yaxshi o‘tkaza oladigan, zavod tipiga xos, mustahkam konstitutsiyali, mahsulot sifati yuqori bo‘lgan qo‘chqor va sovliqlarni mumkin qadar ko‘paytirish va tovar xo‘jaliklariga sotishdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: elita sovliq , tusoq qo‘y , birinchi klass, jaket gulli qo‘y, guligaz qo‘y, tovar ferma, naslchilik ferma;

Mazkur xo‘jaliklar peshqadam qo‘zilarning naslchilik hamda tovar fermalari asosida tashkil etiladi. Bu xo‘jaliklarda qo‘ylar soni o‘tloq – oziq sharoitiga va tashkiliy imkoniyatlariga qarab aniqlanadi. Naslchilik fermalari qo‘ylar soni 10 ming boshdan, tovar fermalarda esa 15 – 20 ming boshdan ortmasligi zarur. Nasldor qo‘ylar podalari bonitirovka materiallari va qo‘ylar konstitutsiyasi tiplarga qarab bir xil suruvlarga ajratiladi.

Qora qorako‘l qo‘ylari sof holda urchitiladigan xo‘jaliklarda:

- a) elita sovliq va tusoq qo‘ylar fermaning alohida suruvlarida saqlanadi;
- b) birinchi klass, jaket gulli qo‘ylar konstitutsiya tiplari, yoshi va klasslarining kelib chiqishiga qarab suruvlarga bo‘linadi;
- v) birinchi klass, gulli qo‘ylar alohida suruvlarga ajratiladi;
- g) birinchi klass, mustahkam konstitutsiyali gulli qo‘ylar alohida suruvlarga biriktiriladi.

Barcha birinchi klass, o‘ta ketgan qo‘pol yoki nozik konstitutsiyali qo‘ylar naslchilik fermalardan tovar fermalarga o‘tkaziladi.

Ko‘k va guligaz qo‘ylarni urchitadigan naslchilik xo‘jaliklarda:

- a) elita sovliq va tusoqlar naslchilik fermalarning birida alohida suruvlarga ajratiladi;
- b) birinchi klass, o‘rta ko‘k qo‘ylar tusi, konstitutsiya tiplari va yoshiga qarab bir xil suruvlarga biriktiriladi;
- v) birinchi klass, to‘q – ko‘k qo‘ylar alohida suruvlarga birlashtiriladi va bularning bir xil belgilariga qarab juftlash o‘tkaziladi;
- g) birinchi klass, och ko‘k qo‘ylarni har xil rang belgilariga qarab juftlash o‘tkazish uchun alohida suruvlarga ajratiladi.

Agar qo‘y podasi ichida ko‘k nasldor qo‘ylar ko‘p uchrasa, och ko‘k qo‘ylarning tovar fermalariga o‘tkazilgani ma’qul.

Ko‘k qo‘ylarni urchitish uchun ixtisoslashtirilgan nasl – reproduktor xo‘jaliklarida ko‘k va qora qo‘ylar soni teng bo‘lishi kerak. Bu tegishli rangdagi qo‘y podasining sonini to‘ldirib turish imkoniyatini beradi.

Guligaz qo‘ylarni urchitish uchun ixtisoslashtirilgan nasl – reproduktor xo‘jaliklarida qo‘y suruvlari yoki bir butun ferma tashkil qilinadi va bunda nasldor guligaz qo‘ylar urchitiladi.

Nasldor sur qo‘ylarni urchitish uchun ham nasl – reproduktor xo‘jaliklari tashkil qilinadi. Sur qo‘ylarni urchitish uchun eng avvalo qora nasldor qo‘ylar suruvlari tashkil qilinadi.

Nasl – reproduktor xo‘jaliklarida ko‘k qo‘ylarni rangi jihatdan bir xil va har xil belgilariga qarab juftlash o‘tkaziladi. Rangidan bir xil belgisiga qarab juftlash faqat elita qo‘ylar va I klass o‘rta va to‘q – ko‘k qo‘ylardagina qo‘llaniladi. Boshqa hamma nasldor va oddiy qo‘ylar rangiga ko‘ra har xil belgilariga qarab juftlanadi.

Nasl – reproduktor xo‘jaliklaridagi qo‘ylar sifati yaxshilangan sari, bonitirovka talabi ham ortadi va past klass qo‘ylar soni tovar xo‘jaliklarga sotish va yaroqsiz (brak) qilib chiqarish hisobiga kamaytiriladi. Nasl – reproduktor xo‘jaliklaridagi nasldor qo‘y podasi shu xo‘jalikdagi olingan elita va I klass qo‘ylar hisobidan to‘ldiriladi

Nasl – reproduktor xo‘jaliklarida yuritiladigan naslchilik ishi ma’lum zavod tipi liniyalarining nasl xususiyatini mustahkamlash va uni kengaytirishga qaratilgan bo‘ladi va bu qo‘ylar o‘z xo‘jaligida va tovar xo‘jaliklarida foydalanish uchun ko‘paytiriladi. Shuning uchun ma’lum zavod tipiga oid liniyalardan olingan qo‘chqorlar bilan nasl – reproduktor xo‘jaliklaridagi sovliqlar doimiy ravishda juftlanadi. Mazkur xo‘jalikdagi mashhur liniyalardan olingan nasldor qo‘chqorlar keng miqyosida ko‘paytiriladi.

Ko‘k qo‘ylar urchitiladigan nasl – reproduktor xo‘jaliklarida ko‘k rang bo‘yicha bir xil belgisiga qarab juftlash qo‘llanib, qo‘zilar tug‘ilgan chog‘ida hayotchanligini aniqlash ishlari olib borilishi va to‘q ko‘k qo‘ylar ichida ham bir xil belgisiga qarab juftlash o‘tkazilishi kerak.

Nasl – reproduktor xo‘jaligida qorako‘l qo‘ylarini urchitish ixtisoslashtirilgan bo‘lsa, ya’ni qora, ko‘k yoki sur qo‘ylar urchitilsa, bu xo‘jaliklar har yili:

a) elitaga kiritiladigan hamma urg‘ochi va erkak qo‘zilarni yakka bonitirovka qilish va qo‘chqorlarning nasl sifati tekshirilayotgan qo‘ylardan olingan qo‘zilarni qisqartirilgan yakka bonitirovka qiladi;

b) barcha elita qo‘ylardan olingan qo‘zilarning teri sifati alohida hisobga olinadi;

v) xo‘jalikdagi hamma nasldor qo‘chqorlar bahor va kuzgi qirqim oldidan (kuzda qochirish kampaniyasi oldidan) qayta ko‘riladi;

g) sovliq va tusoqlarning naslli va tovar podalari tashkil qilinadi;

d) qo‘ylarni yaxshi boqadi va asraydi.

Yuqorida bayon etilgan omillar to‘liq amalga oshirilsa, nasl – reproduktor xo‘jaligida naslchilik ishi yuritish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan deb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maqsudov IJo ‘raev J.Ya. Amirov Sh.Q-CHORVACHILIK ASOSLARI Toshkent, 2012.

2. Nurislom Tuxliyev - O‘zbekiston Respublikasi: Ensiklopedik Malumotnoma “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 2007.

3. Sindorov, A., & Azimov, N. (2020). QORAKO‘L ZOTLI QO‘Y BIOLOGIYASI. Журнал естественных наук, 7(1).

4. Sindorov, A., & Azimov, N. (2020). QO‘YLARNI URCHITISH. Журнал естественных наук, 7(1).

5. Sindorov Abdumo‘min O‘rolbek o‘gli, Azimov Nodir Qodir o‘g‘li, & Erkinova Nargiza O‘tkir qizi. (2021). QORA MOLLARNING ICHKI TUZILISHI (INTERERI). Журнал естественных наук, 7(4).